

Alibek KARIMOV, Aziza ALIQULOVA

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

INFRATUZILMA VA XUSUSIY TA'LIM LOYIHALARIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK AMALIYOTIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada infratuzilma va xususiy ta'lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishda nazariy yondashuvlar tadqiq qilingan. Davlat va xususiy sheriklikning qo'llanish sohalari, Infratuzilma va xususiy ta'lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanishning SWOT tahlili amalga oshirilgan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: loyiha, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, xususiy ta'lim, moliyalashtirish.

OPPORTUNITIES TO USE PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS IN INFRASTRUCTURE AND PRIVATE EDUCATION PROJECTS

Abstract: This article studies theoretical approaches to studying the possibilities of using public-private partnership practices in infrastructure and private education projects. Areas of application of public and private partnership, SWOT analysis of the use of public-private partnership practice in infrastructure and private education projects was carried out. Relevant conclusions are given based on the analysis.

Keywords: project, public-private partnership, infrastructure, private education, financing.

Kirish

Bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan iqtisodiyotning soha va tarmoqlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning budjetdan tashqari muhim moliyaviy manbalardan biri sifatida foydalanish, qo'shimcha moliyaviy resurslar sifatida jabl qilish natijasida investitsiya faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, xususiy sektorning qiziqishlarini kuchli himoyasini ta'minlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni uzluksiz moliyalashtirish, infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi sohalarni rivojlantirish, davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklikdan kengroq foydalanish kabilarga erishishda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

“Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari keng ma’noda davlat xizmatlarini qisman yoki to’liq bajarish maqsadida, davlat va xususiy sektor o’rtasidagi birlashmalarning barcha ko’rinishlarini o’z ichiga oladi” [1] deyilgan bo’lsa, H.K Yong esa, “Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari davlat va xususiy sherik o’rtasidagi uzoq muddatli kommersion sheriklik shakli bo’lib uning ustun jixati xususiy kapitalni kengroq doirada jalb qilish imkoniyatini beradi” [2] deb ta’rif keltirgan.

Xorijlik olim T.Boguslavskaya “maktabgacha ta’limning fundamental asoslarini tadqiq qilgan holda, o’z ilmiy ishlanmalari mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va kelgusidagi muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratgan. Jumladan, uning fikricha, maktabgacha ta’lim tizimida davlat siyosatida, istiqbolda strategiyalarni ishlab chiqishda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda jamiyat va oilalar o’rtasidagi integratsiyani inobatga olish zarur” [3].

Davlat-xususiy sheriklik borasida ilmiy izlanishlar olib borgan V.Varnavskiy tadqiqotlarida keltirilishicha, “davlat-xususiy sheriklik huquqiy rasmiylashtirilgan (qoidaga ko’ra, muayyan muddatga), birgalikda investitsiyalashni taqdim etuvchi va risklarni bir tomonidan markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlari o’rtasida, ikkinchi tomondan yuridik shaxslar o’rtasida bo’lishish jarayonidir” [4].

“Ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish, moliyalashtirish, qurish va boshqarishda foydalanilishi mumkin bo’lgan davlat idorasi va xususiy korxona o’rtasidagi hamkorlikni o’z ichiga olgan davlat-xususiy sheriklik (DXSh) shartnomalariga ko’plab mamlakatlar qiziqish bildirmoqda” [5]. Chunki davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ijobiy jihatlari iqtisodiyotni rivojlantirishda hamda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashda qulay moliyalashtirish shakllaridan biri hisoblanadi.

J. Zeng o’z tadqiqotlarida davlat infratuzilmasini rivojlantirish uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish niyatini bildirgan davlat-xususiy sheriklik bozorida davlat mulkining taqsimlanishi tartibini tushuntirishga harakat qilgan [6]. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlaridan davlat o’zining funksiyalarini amalga oshirishda foydalanish samaradorlikka erishishda yordam qiladi.

V. Krepl boshchiligidagi mualliflar jamoasining fikricha, “davlat-xususiy sheriklik (DXSh) munosabatlarida qaror tasodifiy qabul qilinishi mumkin emas, mazkur qaror ilmiy asoslangan bo’lishi lozim. Qaror qabul qilingandan keyin oldini olish mumkin bo’lmagan xatolarni kamaytirish uchun DXSh munosabatlari samarali mezonlarni o’z ichiga oladi. Ushbu mezonlar ko’plab tadqiqotlarda o’rganilib, mezonlar huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarga qarab mamlakatlar kesimida farq qilishi mumkin. Shu sababli DXSh qarorlarini to’g’ri shakllantirish mamlakatdagi shart-sharoitlari va omillarga bog’liq” [7]. Mamlakatdagi

umumiqtisodiy muhit va yaratilgan shart-sharoitlar davlat-xususiy sheriklik amaliyotini rivojlantiradi.

S. Elmirzayev va N. Shavkatov ilmiy izlanishlarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining xorij tajribasini o'rgangan. "Mamlakatimizning iqtisodiy o'sishida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy omillar transport, energetika, kommunal xizmatlar kabi infratuzilma tarmoqlarining yetarlicha rivojlanmaganligidir. Shuningdek, ushbu tarmoqlarda infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha zarur investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarning yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish darajasining pastligi asosiy muammolardan hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etishda dunyo amaliyotida eng samarali usullardan biri davlat-xususiy sheriklik asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi" [8]. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining infratuzilmani rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyati mazkur amaliyotning kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

A. Botirov va boshqalar davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining o'ziga xos jihatlari yoritgan. "Xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda davlat o'z funksiyalarini bajarish davomida ijtimoiy sohani ham qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi zarur. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik amaliyoti xalqaro darajada tadqiq qilinmoqda. Mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklik amaliyotini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda va bu orqali xususiy sektordan investitsiyalar jalb qilish, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish kabilarga erishish mumkin" [9]. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik loyihalari qamrovini kengaytirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi


Mazkur maqolada infratuzilma va xususiy ta'lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishda analiz, sintez, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, nazariy asoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Amaliyotdan kelib chiqqan holda davlat mulkini rekonstruksiya qilish, qurish va uni boshqarish jarayoni bilan bog'liq DXShning quyidagi obyektlari yuzaga keladi (1-rasm):

– transport sohasi: avtomobil yo'llari, temir yo'llar, dengiz va daryo portlari va kemalari, aerodromlar, aeroport-larning sanoat va muhandislik infratuzilmasi, yer osti va boshqa jamoat transporti;


- ijtimoiy soha: ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy xizmatlar, sport;
- energetika sohasi: elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va tarqatish, issiqlik, gaz va energiya ta’minoti, tashqi yoritish va boshqa ob’ektlar;
- kommunal infratuzilma: suv ta’minoti va kanalizatsiya, suv quvurlari;
- IT sohasi: elektron xukumat, yuqori tezlikdagi internet, aqlli shaxarlar;
- ekologiya: maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish (ko‘mish), obodonlashtirish;
- infratuzilma: yo‘llar, istirohat bog‘lari, bozorlar va boshqa turdagi ijtimoiy shaxar qurilishlari.



1-rasm. Davlat va xususiy sheriklikning qo‘llanish sohalari [10]

Iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy loyihalar samaradorligini ta’minlash orqali aholiga qulaylik yaratib berish davlatning funksiyalaridan hisoblanadi. Mazkur jarayonda o‘zining ijtimoiy funksiyalarini bajarishida davlat tomonidan davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish ijtimoiy loyihalar samaradorligini oshiradi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarida nafaqat ijtimoiy samaradorlikka erishiladi, balki iqtisodiy va ekologik jihatdan ijobiy natijalarga erishish imkoni mavjud. Shu sababli iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasidan qat’iy nazar aksariyat mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarini kengaytirishga harakat qilinmoqda. Quyida davlat-xususiy sheriklik amaliyotining

xususiyatlari hamda milliy amaliyotda mazkur amaliyotni kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarni tahlil qilamiz.



2-rasm. Infratuzilma va xususiy ta'lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanishning SWOT tahlili [11]

Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining SWOT tahlilini amalga oshirish orqali mazkur amaliyotning kuchli va zaif tomonlari, yuzaga keladigan imkoniyatlar hamda xavf-xatarlarni aniqlash imkoni yuzaga keladi (2-rasm). Davlat-xususiy sheriklik amaliyotining mamlakatda rivojlanishi xususiy tadbirkorlar hamda davlatning sheriklik munosabatlarini rivojlantiradi va samarali boshqaruvni yuzaga keltiradi. Xususiy sherikning boshqaruv qobiliyati innovatsiyalardan samarali foydalanishga yordam beradi. Moliyalashtirishdagi sheriklik va davlat tomonidan yaratilgan barqaror siyosiy muhit kelajakda loyihaning samaradorligini oshirishi mumkin. Tomonlar o'rtasida majburiyatlar taqsimoti, boshqaruvning bo'linishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish loyihada inobatga olinishi lozim. Yetarlicha huquqiy bazaning shakllantirilmaganligi, moliya bozorida ishtirok etishning cheklanganligi kabilar turli xavf-xatarni yuzaga keltirishi mumkin.

Milliy amaliyotda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining huquqiy asoslarini yaratish hamda tashkiliy mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha so'nggi yillarda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 509-son Qaroriga muvofiq davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim tender yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokaralar orqali tuzilishi mumkin. Mazkur jarayonda bitimni tuzish tartibi, xususiy sherik hamda davlat oldidagi huquqlar va majburiyatlar kelishib olinadi. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g‘olibi yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokara ishtirokchilaridan undiriladigan bir martalik to‘lovlarni ham amalga oshiradi (1-jadval).

1-jadval

Infratuzilma va xususiy ta’lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g‘olibi yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokara ishtirokchilaridan undiriladigan bir martalik to‘lov miqdorlari [12]

T/r	Davlat-xususiy sheriklik loyhasining qiymati	Bir martalik to‘lov miqdori (foizda)
1.	Umumiy qiymati 1 mln AQSh dollaridan 10 mln AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar uchun	0,2%
2.	Umumiy qiymati 10 mln AQSh dollaridan 100 mln AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar uchun	0,1%
3.	Umumiy qiymati 100 mln AQSh dollaridan 1 mlrd AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar uchun	0,05%
4.	Umumiy qiymati 1 mlrd AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan loyihalar uchun	0,02%

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Infratuzilma va xususiy ta’lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim muvaffaqiyatli rasmiylashtirilganligi uchun tender g‘olibi yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokara ishtirokchilaridan undiriladigan bir martalik to‘lov miqdorlari umumiy qiymati 1 mln. AQSh dollaridan 10 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar uchun 0,2 foiz, 10 mln. AQSh dollaridan 100 mln. AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar uchun 0,1 foiz, 100 mln. AQSh dollaridan 1 mlrd. AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar uchun 0,05 foiz hamda 1 mlrd. AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan loyihalar uchun 0,02 foiz belgilangan.

Xulosa

Infratuzilma va xususiy ta’lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish asosida xulosalar shakllantirilgan:

1. Loyihalarda davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish imkoniyatlarini bo‘yicha yagona kompleks yondashuv ishlab chiqilishi lozim;

2. Mahalliy iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan infratuzilma va xususiy ta'lim loyihalarida davlat-xususiy sheriklik amaliyotidan foydalanish imkoniyatlari tor doirada o'rganilgan;

3. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari asosida infratuzilma va xususiy ta'lim loyihalarini amalga oshirishdagi samarali moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Public-Private-partnership. Principles of policy and finance. E.R.Yescombe. Copyright © 2007, Yescombe Consulting Ltd. Published by Elsevier Ltd.

2. H. K. Yong. Public-Private Partnerships Policy and Practice. A Reference Guide, Commonwealth Secretariat 2010

3. Богуславская, Т. Н. (2017). Стратегические приоритеты воспитания дошкольников как ценностно-целевой ориентир государственной политики в области дошкольного образования. *Дошкольник. Методика и практика воспитания и обучения*, (6), 4-9.

4. В. Варнавский Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики // «Мировая экономика и международные отношения», 2011, № 9, с. 41-50.

5. Yawovi Mawussé Isaac Amedanou. Financing the economy in debt times: The crucial role of public-private partnerships. // *Research in Economics*, Volume 77, Issue 3, September 2023, Pages 295-309

6. James Si Zeng. Competing with Leviathan: Law and government ownership in China's public-private partnership market. // *International Review of Law and Economics*, Volume 76, December 2023

7. Vladimír Krepl, Ghaeth Fandi, Mohammad Rehabi, Safwan Ghanem, Fayez Jrad, Zdenek Muller, Luboš Smutka, Jan Kyncl, Melkior Urbanus, Soliman Fandie, Inna Čábelková, Josef Tlustý, Effective criteria in the public-private partnership in developing countries to apply the sustainable development goals: GAN-based decision support system for the renewable electrical system, case study Syria, *Heliyon*, Volume 9, Issue 11, 2023

8. Элмирзаев С. Э., Шавкатов Н. Ш. Давлат-хусусий шериклик муносабатларининг илғор хориж тажрибалари ва мамлакатимизда қўллаш истикболлари. // *Халқаро молия ва ҳисоб*” илмий электрон журнали. – 2019. – Т. 3.

9. Botirov PhD A., Omonov S., Turobkhonov S. FEATURES OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PRACTICE // *International Finance and Accounting*. – 2021. – Т. 2021. – №. 1. – С. 17.

10. С.С. Якубова. Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик асосида мактабгача таълим тизимини молиялаштиришни такомиллаштириш // Монография. – Т.:, 2023. – 16 б.

11. Dat, Le Huu and Bui Thi Phuong Anh. “SWOT ANALYSIS FOR PROPOSING STRATEGIES OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP INFRASTRUCTURE PROJECTS: FROM A DEVELOPING COUNTRY’S PERSPECTIVE.” (2020).

12. О‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 509-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5568613>